

## MAMLAKATIMIZDA MUSTAQILLIKKA ERISHILGANDAN KEYINGIZ YUTUQLARIMIZ

Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi,

Omonova Sevara Akramjonovna,

Axmadaliyeva Mohigul Kadirovna

Farg'onan davlat universiteti

Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchilari

O'zbekiston Mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda tub o'zgarishlar bo'lgani hech kimga sir emas. Ushbu davr tarixi aks etgan arxiv hujjatlari Toshkent shahar markaziy davlat arxivida saqlanib kelinmoqda. Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashi Prezidiumining 1992-yil 6-apreldagi 18/3 sonli "Toshkent shahrining ayrim ko'chalari, maktablari, madaniyat va istirohat bog'lari, metro stansiyalari nomlarini o'zgartirish va yodgorlik taxtalarini o'rnatish to'g'risida"gi Qarori, bunga yaqqol misoldir. Ushbu hujjat Tuman deputatlar kegashi, jamoatchilikning rasmiy iltimoslari asosida va Shahar Atamalar komissiyasi takliflari asosida, Xalq qaxramonlari, olimlarning nomlarini abadiylashtirish maqsadida qabul qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi qonunining 24-moddasiga muvofiq Toshkent shahar metropolitenining stansiyalari nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi ko'rsatmalar berilgan.

Ushbu hujjat Toshkent shahar markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.

Eslatma: Ushbu hujjat Mustaqillikning dastlabki yillarda qabul qilinganini inobatga olgan holda, hozirgi vaqtga qadar ayrim ko'chalar, maktablar, madaniyat va istirohat bog'lari, metro stansiyalarning nomlarini tegishli qonun hujjatlari asosida o'zgartirilgan bo'lishi mumkin.<sup>1</sup>

Bu yil mamlakatimiz hayoti va taqdirida tub burilish yasagan, tom ma'nodagi buyuk, olamshumul voqeа — O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilinganiga 33 yil to'ladı. Bu tarix uchun ko'p muddat emas, lekin o'tgan davrning har daqiqasi bunyodkorlik, yangilanish, dunyoga chiqish maqsadi bilan chuqur mazmun va mohiyat kasb etdi.

Mustaqillik el-yurtimiz uchun jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, hayotning turli soha va tarmoqlarida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib, barcha yutuq va marralarimizning asosiy manbai bo'lib kelmoqda.

Istiqlol tufayli xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi, millatning g'ururi, or-nomusi, sha'ni tiklandi. Ayniqsa, so'nggi olti-yetti yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning butun dunyoga ochilishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda.

O'tgan qisqa davrda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ldi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ilm-fan, ta'lim rivojisiz hayotda yuksalish bo'lmaydi. Hozir dunyo mamlakatlarining aksariyati asosiy e'tiborni ilm-fanni

<sup>1</sup> <https://archive.uz/post/ozbekiston-mustaqillikka-erishganidan-song-mamlakatda-tub-ozgarishlar-bolgani-hech-kimga-sir-emas>

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-SENTABR 2024

rivojlantirishga, ilm-fan orqali ishlab chiqarishni, sanoatni va boshqa tarmoqlarni yuksaltirishga qaratayotgani sababi ham shunda.

Shu jihatdan, keyingi yillarda O'zbekistonda ta'lif, ilm-fan sohasini rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor dajarajaga ko'tarildi. O'tgan olti-yetti yilda mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun ko'plab huquqiy hujjatlar — qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, dasturlar qabul qilindi.

O'qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o'mni va ta'sirini kuchaytirish, ta'lif tizimini zamон talablari asosida tashkil etish bo'yicha ulkan islohotlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, o'qituvchilar majburiy mehnatdan — paxta terimi, obodonlashtirish ishlariga jalb etilishdan xolos qilindi. Ta'lif dargohlaridagi ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham ta'lif tizimini, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish uchun, o'qituvchilar maqomini, nufuzini oshirish uchun alohida moddalar kiritildi. Sohani rivojlantirish uchun yaratilgan huquqiy asoslar hayotda qisqa vaqt ichida amaliy natijalarini bera boshladi.

Yuksak salohiyatli o'quvchilarni tayyorlash ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni shakllantirish maqsadida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Hozir bunday maktablar respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat olib bormoqda. Bu maktablar ma'lum fanlar bo'yicha ixtisoslashgan.

Har bir sinfda 15-20 ta o'quvchi ta'lif oladi. Ularda o'qish dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida e'tirof etilgan "A — Level" ta'lif dasturi asosida, fanlar chuqur o'zlashtiriladigan tarzda o'qitiladi. Ta'lif xorijiy va o'zbek tilida olib boriladi. Bu esa ushbu maktablarda ta'lif olayotgan yoshlarning dunyoning nufuzli oliygohlariga kirib o'qishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Mustaqillik yillarda, xususan, oxirgi yillarda umumta'lif fanlari bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega pedagog kadrlarga har oy qo'shimcha 20 foizdan 50 foizgacha ustama to'lash, o'qituvchilarga imtiyozli iste'mol kreditlarini berish, olis hududlarga borib ishlayotgan yuqori malakali pedagoglar uchun ustamalar belgilash joriy etildi. Bularning barchasi muallim shaxsiga ko'rsatilgan yuksak e'tibor va e'zoz namunasi, emasmi?

Ta'lif sohasidagi yangilanishlarning asosiy qismini oliy ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Istiqlol yillari ayniqlsa, keyingi yetti yilda olim ta'lifda bu soha katta o'zgarisharga yuz tutdi. E'tibor bering, bir paytlar respublikamizda 40 dan ortiq oliy ta'lif muassasalari bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ularning soni 200 taga yetdi.

Mamlakatimizning nafaqat yirik shaharlarida, balki olis hududlarida ham oliy o'quv yurtlari ochilib, yoshlarning ta'lif olishlari yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lif tizimida o'quv muassasalarining ko'payishi, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikning kuchayishi mamlakatimizda ko'pdan beri yuzaga kelgan yana bir muammoni hal qilish imkonini berdi.

Davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtlarini ham, ulardagi ta'lif o'rinalarini ham ko'paytirishga e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lif olishiga katta sharoitlar yaratib berilyotgani tufayli oliy ta'lif muassasalari soni 2,5 barobarga ortdi. Bu orqali yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshirildi.

Ahamiyatlisi, keyingi yillarda oliy ta'lif tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, shuningdek, ko'plab xorijiy oliy o'quv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobjiy holat

bo'ldi. Bir jihatdan oliy ta'limning qamrovi kengaysa, ikkinchidan, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtaida ijobjiy ma'nodagi o'zaro raqobatni ta'minlaydi, tizimda bozor qonunlari ishlay boshlaydi.

Ta'lim va ilm-fan sohasida o'tgan 8 yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida jiddiy o'zgarishlar, yangilanishlar yuzaga keldi. Qisqa vaqt ichida maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, oliy o'quv yurtlari soni bir necha barobarga ko'paydi. Bularning barchasiga mustaqillik sharofati hamda davlatimiz rahbari boshchiligidagi o'tgan davrda olib borilayotgan islohotlar tufayli erishyapmiz, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim sohasiga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani, ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilayotgani bejiz emas. Zero, yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g'ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin. Jamiyatda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi.

Prezidentimizning 2023 yil 27 iyuldagagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qaroriga asosan, bu yilgi tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar “Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!” degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan shior asosida kutib olinishi qalbimizda faxr va iftixon to'yg'ularini jo'sh urdirdi. Zero, buning zamirida mustaqillikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, shu ulug' va muqaddas Vatanda o'tayotgan tinch-osuda hayotimiz, farovon turmushimizning qadriga yetishdek ulug' g'oya va maqsad mujassam.<sup>2</sup>

Shu kunlarda butun xalqimiz davlatimiz mustaqilligining 33 yilligini keng nishonlashga katta taraddud ko'rayotgan bir paytda barcha sohada amalga oshirilayotgan xaqchil islohotlarni ko'rib, qalbimizdan bir tilak o'tadi: har lahzada yangilanib, ko'rkamlashib borayotgan O'zbekiston manfaati yo'lida mehnat qilishdan aslo tolmaylik. Hamisha Vatanimiz xizmatiga kamarbasta bo'laylik!

<sup>2</sup> <https://parliament.gov.uz/articles/1645>